

## **Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy intellektni shakllantirishning amaliyotdagi mavjud holati**

Otabek Abdug'affor o'g'li Abduraxmonov  
Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining rivojlanishini bolalarning ruhiy salomatligi, bilish faolligida ko'rishimiz mumkin. Bolaning qiziquvchanligi asosan uning atrofidagi dunyoni bilishga qaratilgan. O'yin davomida bola dunyo sirlarini o'rganishga harakat qiladi. Bolaning aql-zakovati qanchalik keng bo'lsa, u shunchalik ko'p savollar beradi va bu savollar asosan xilma-xildir. Bola qanday qor va yomg'ir yog'ishi, tunda quyosh qayerda bo'lishi, mashina qanday harakatlanishi va yerdan osmonganacha qanchalik uzoq ekanligiga juda qiziqadi.

**Kalit so'zlar:** bolalar, maktab, intellekt, tafakkur

## **The current state of social intelligence formation in preschool children in practice**

Otabek Abdugaffor oglu Abdurakhmanov  
Namangan State University

**Abstract:** We can see the development of preschool children's thinking in the mental health of children, cognitive activity. A child's curiosity is mainly aimed at learning about the world around him. While playing, the child tries to learn about the secrets of the world. The wider a child's intelligence, the more questions he asks, and these questions are mostly diverse. The child is very interested in how it snows and rains, where the sun is at night, how the car drives, and how far it is from the ground to the sky.

**Keywords:** children, school, intellect, thinking

Maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-ijtimoiy intellektlarga kirishish madaniyatini shakllantirishga oid tadqiqotlar mazkur hodisani rivojlanirish uchun alohida ahamiyatga ega. Mazkur davrning o'ziga xos jihatni shundaki, bu yoshda bolalar bola maqomiga ega bo'ladilar. Bu o'ziga xos o'tish davri hisoblanib, bolalar o'z faoliyatlarida maktabgacha ta'lif davridagi harakatlar bilan o'yin faoliyatiga xos harakatlarni mujassamlashtiradilar. Mazkur sifatlar bolalarning xatti-harakatlari va ongida murakkab hamda qarama-qarshi holatlarni uyg'unlashtiradi. Har qanday o'tish davrida bo'lgani kabi ushbu yosh davri ham rivojlanishda o'ziga xos boy

imkoniyatlarga ega. Mazkur imkoniyatlarni tarbiyachi o'z vaqtida ilg'ashi va qo'llab-quvvatlashi lozim. Ularning ruhiyati bilim olishga etadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bolalar idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.

Maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. Bolaning mактабга borishi uning fiziologik, ijtimoiy-psixologik rivojlanishi va shaxsining shakllanishida nihoyatda muhim o'rн tutadi. Bola o'yin faoliyatida tarbiyachi rahbarligida inson faoliyatining turli shakllari mazmunini o'zlashtiradi va o'rnatilgan axloqiy me'yorlar doirasida harakat qiladi. O'yin faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'yin faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkuri zarur darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor muassasaga kelgan bola o'z atrofidagilar bilan psixologik jihatdan yangi intellekt tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganligi, unga yangi majburiyatlar, nafaqat har kuni muassasaga borish, balki o'yin va kognitiv faoliyat talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi.

Oila a'zolarining bola o'yin faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, intellekt uning ijtimoiy mavqeい o'zgarganligini to'la his etishi, o'ziga nisbatan intellektsining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolani amaliy jihatdan o'z vaqtini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi, bolaning bog'chadagi muvaffaqiyati uning keyingi ruhiy rivojlanishi va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rн egallayotganligini, otonasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlar bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga loyiq alohida shaxs sifatida intellektda bo'layotganliklarini his eta boshlaydi. Buning natijasida bola o'z-o'zidan oilasi va jamoasida o'z o'rni borligini anglay boshlaydi. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" maylidan "Men shuni bajarishim kerak" xohishi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir bolada ruhiy zo'riqish hosil bo'ladi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham qo'rquvning kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o'zaro intellektda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish intellektsiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi.

Bu yoshda bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshda me'yorida rivojlanayotgan olti yoshli bola 3000–7000 so'zni ishlataladi. 6-7 yoshli bola o'z jumlalarini murakkab grammatik tarkib asosida tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab, uni o'zlashtiradi. Bola nutqda o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qila oladi.

B.Xodjayevningning fikricha, bolalarda tafakkurni didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish samarali natijalarga olib keladi [61]. Shu bilan bir qatorda, unga ijod qilish imkoniyati ham beriladi. Mustaqil ijodiy ishlar bolada berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot toplash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish intellektsini hosil qiladi. Jumlalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagagi bolaning aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida uning bilimlar ko'lami, qiziqishlari kengayadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, unda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagagi bola o'z idrokning aniqligi, raxonligi, o'tkirligi bilan boshqa yoshdagagi insonlardan keskin farq qiladi. U har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashi sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur bog'cha yoshdagagi bolaning idroki uning xatti-harakati, o'yini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq, u o'zining extiyoji, mayli, qiziqish va intilishi, turmush sharoitiga mos, shuningdek, tarbiyachi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни Т.:2020 й. 23 сентябр

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Фармони. –Т.: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

3. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. “Вазирлар Маҳкамасининг мамлакатимизни 2016 йилдаги ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунларини ҳар томонлама таҳлил қилиш ҳамда республика

Хукуматининг 2017 йил учун иқтисодий ва ижтимоий дастури энг муҳим йўналишлари ва устувор вазифаларини белгилашга бағишлиланган кенгайтирилган мажлисида сўзлаган маъruzasi Xalq сўзи”2017 йил 16 январ 11-сони

4. Mirziyoyev.Sh.M Buyuk kelajakni mard va olижаноб xalqimiz bilan birga quramiz. T.:O’zbekiston. 2017.(103 b)
5. Mirziyoyev .Sh.M Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.O’zbekiston.2016 (14 b)
6. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. ToshDPU.2002.(o’quv qo’llanma).
7. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o’rganishning o’rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
8. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O’smirlar o’rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o’ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
9. Nishonova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O’SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.
10. қизи Ахмедова, Д. С., & қизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОФИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(3), 413-416.
11. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. Экономика и социум, (8), 42-45.
12. Bannayev, M. S. (2022). O’zbekistonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. Science and Education, 3(6), 701–712